



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/2



www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 2
2026

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar

doi[®] digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Uzbekistan-2026



ALISHER NAVOIYNING "G'AROYIB US-SIG'AR" DEVONI TARKIBIGA KIRUVCHI G'AZALLARIDAGI GUL OBRAZI TALQINI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Shuxratova Ohista

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
201-guruh talabasi

N. Muhitdinova

Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada hazrat Alisher Navoiy ijodining yorqin namunalaridan biri "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kiruvchi g'azallardagi gul obrazi tahlil etiladi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda har bir obraz o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi va g'azal badiiyatini oshirishda alohida o'rin tutadi. Gul obrazi ham shunday obrazlar qatoriga kiradi.

Kalit so'zlar: oshiq, ma'shuqa, bulbul, tashbeh, oq, qizil.

"Obraz" keng ma'noli tushuncha bo'lib, u adabiyotshunoslikda inson tasviridan tashqari turli jonli va jonsiz mavjudotlar tasviri orqali hosil qilinadi. Mumtoz adabiyotda, gul obrazi yetakchi tasvir vositalaridan biri sifatida talqin etiladi va turli mavzudagi (oshiqona, orifona, peyzaj) g'azallarda turlicha ma'no ifoda etadi. Bilamizki, oshiqona g'azallarda 3 an'anaviy obraz bo'lib, bular: oshiq, ma'shuqa va raqib hisoblanadi. Ular esa turli timsollar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, oshiq yor ko'yida zor bo'lgan bulbul, ma'shuqa bulbul hushini o'g'irlagan gul, raqib esa yor ko'yining itlari, oshiqning xasmi kabi an'anaviy obrazlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Gul obrazi nafaqat ma'shuqa, balki, oshiq obrazi, shuningdek, peyzaj g'azallarda asosiy tasvir komponenti sifatida talqin etilishini ko'rishimiz mumkin. Mumtoz adabiyotda gul va bulbul obrazlari orqali ishq-muhabbat kechinmalari va hayot go'zalliklari tasvirlanadi. Gul yoki atirgul so'zi, aslida, fors-tojik tilidan olingan, turkiy tilda uning chechak, arabcha "vard", "zahro" kabi ma'nodoshlari qo'llanilgan. Gul obrazi Sharq mumtoz adabiyotida IX asrdan boshlab qo'llangan. Turkiy adabiyotda gul so'zi birinchi marta "Qutadg'u bilig" asarida uchraydi. "Devoni lug'atit turk" asarida gul-chechak, bulbul-sanduvoch tarzida qo'llanilib, bahor elchilari sifatida talqin qilingan. Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida ham bahor, yoz, kuz, qish manzaralarini tasvirlovchi, tabiat ne'matlarini ulug'lovchi o'nlab g'azallar mavjud. Ulardan biri:

Bahor sensiz o'lubtur manga ajab do'zax,
Qizil gul anda o't-u oq shukufalardur yax.

Ushbu baytda lirik qahramon oshiq obrazida gavdalantirilgan va ma'shuqasi hijronida u uchun bahor ham hayratlanarli bir do'zax kabi tuyilyotganligini ta'kidlamog'da. Bilamizki, bahor bu yangilanish, yasharish va oshiq uchun vasl, ya'ni yorning visoliga yetishish dami sifatida tasvirlanadi. Lekin ushbu faslda yor visoliga muyassar bo'lmaganlar uchun u do'zax sifatida tasvirlangankim, undagi

qizil gullar do‘zax o‘ti-yu, oq shukufa, ya‘ni g‘unchalar muz kabidir. Ya‘ni ushbu gul-u chechaklar, bahor go‘zalliklari boshqalar ko‘nglini shod etishi, ko‘zini quvontirishi mumkin, lekin oshiq uchun ularni ko‘rishning o‘zi azob. Nega? Ma‘limki, biror narsadan ko‘ngli ozurda inson shod- xurram yurganlarni ko‘rib, ko‘ngli battar ezilib, o‘z baxtsizligini yanada ko‘proq his etgani kabi oshiq uchun ham bahor chechaklari shu vazifani bajarmoqda. Nega endi gullar qizil va shukufalar oq? Chunki, mumtoz adabiyotda qizil rang navqironlik, go‘zallik, xursandchilik ramzi hisoblangan. Shuning uchun ham, ko‘pincha gul o‘zida shu sifatlarni ifoda etayotganini tasvirlash uchun qizil rangdan foydalanilgan va olov ham qizil rangda yongani uchun bahordagi xurramlik ramzini ifodalovchi gulga o‘xshatilgan, ammo biri shodlikni, ikkinchisi esa azobni ifodalashi bilan ichki tazodni yuzaga keltirgan. Oq rang esa poklik, kamolot rangi hisoblangan va bahordagi oppoq g‘unchalar oshiq uchun yax, muz kabidir, ya‘ni rang jihatidan o‘xshaydi, ammo oshiq uchun biri visol, biri hijronni ifodalaydi. Shuningdek, adabiyotda oq gulning hasrat ramzi sanalishini ham ta'kidlab o‘tishimiz lozim. Shunday qilib, oshiq uchun bahor ajab do‘zax, ya‘ni o‘t va muzdan iborat deya tasvirlangan. Lekin, ko‘pincha, biz do‘zaxda o‘t bo‘lishini eshitganmiz, balki muz ham bo‘lishi bilan u ajabdir. Ushbu baytda yax va o‘t so‘zlari orqali tazod; gul, bahor, g‘uncha so‘zlari orqali tanosub; bahor va do‘zax, qizil va oq so‘zlari vositasida esa tazod san‘ati yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Davron chamanidan sen ul lahzaki, chiqding, gul

Tirnog‘ ila qildi ruxsorini yuz parkand.

Ushbu baytda gulda bo‘ladigan parcha-parcha bo‘laklar nima sababdan borligi husni ta‘lil san‘ati orqali go‘zal tasvirlangan. Ya‘nikim, yor davron, dunyo gulistonidan chiqqan zahotiyoq gul uni ko‘rib o‘zidan-da, go‘zalroq, malohatliroq yaratq borligini ko‘rib, alamidan yuzini yuz bo‘lakka bo‘ldi. Bilamizki, inson biror narsadan haddan ortiq siqilganda xo‘rligi kelib, yig‘lab yuzini yuladi. Ushbu baytda shunga ishora bor. Shuningdek, gul obrazi shaxslantirilib, tashxis san‘ati; gul, chaman va ruxsor so‘zlari orqali tanosub san‘ati yuzaga keltirilgan.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,

Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?

Ushbu misralarda gul obrazi ma‘shuqaning go‘zalligi ramzi sifatida keltirilgan. 1-misrada oshiq ma‘shuqaga yuzingni gullar bilan bezab olganmisan bizni qurbon aylading, ya‘ni seni shunday chiroyli ruxsoringni ko‘rib, tanimda jon qolmadi, fido bo‘ldim, unga erishish uchun har narsaga tayyorman, shu go‘zalligingga o‘zimni qurbon qilay demoqda. 2-misrada oshiq yoki bu yuzingdagi gullar aslida gul emas, balki meni o‘ldirgach, o‘sha qonlar yuzinga tegib, shunday go‘zal guldek bo‘lib turibdimi deya yoriga murojaat etmoqda. Bu orqali tajohul orif san‘ati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, yuz va gul, qon va qurbon so‘zlari orqali tanosub; ma‘shuqaning bezanishi va oshiqning qurbon bo‘lishi orqali ma‘noviy tazod san‘ati yuzaga kelgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mumtoz adabiyotda ma'shuqa timsolini gavdalanirishda gul obrazi yetakchi mavqe egallaydi. Buni quyidagi baytlar misolida ko'rib chiqamiz.

Istamish bulbul vafo guldin magarkim joladin

Bag'ri qotmish g'unchaning, baskim erur xandon anga

Ushbu baytda gul ma'shuqa timsoli bo'lib, bulbul guldin vafo istayapti, ammo agar g'unchaning bag'ri joladin qotgan bo'lsa, u faqat xandon qiladi, ya'ni masxara qilib, kulib turadi deyilmoqda. "Jola" so'ziga e'tibor qaratsak, bu so'z ham "ko'z yosh tomchilari", ham "do'l donalari" ma'nosida keladi va baytda shu so'z orqali tamsil san'atining go'zal namunasi yaratilgan. Ya'ni g'uncha hali ochilmasdan oldin do'l donalari unga tushsa, shuning ta'sirida u kulib turgandek ochiladi. Xuddi shuningdek bulbul, ya'ni oshiq vafo istab nola-yu ko'zyosh qilaverganini ko'rgan gulning diydasi qotib, unga bular ortiq ta'sir qilmaydi, aksincha uni masxara qiladi, degan ma'no anglashilmoqda. Bilamizki, mumtoz adabiyotda yor oshiqqa nisbatan beshafqatligi, vafosizligi, sarkashligi bilan mashhur. Demak, ushbu baytda bulbul(oshiq) gul(ma'shuqa)dan vafo istayapti, ammo shu gul, g'unchaning bag'ri oshiqning ko'z yoshlaridan qotgan unga endi nolalar ta'sir etmaydi, endi faqat u oshiqning oshiqligi ustidan kuladi deyilmoqda. Ushbu misralarda bulbul, gul, g'uncha so'zlari orqali tanosub san'ati, vafo istash va xandon qilish, ya'ni vafo so'rash va bunga javoban masxara qilish vositasida tazod san'ati yuzaga kelgan.

Zohid uchmog'in etar vashf-u men ul oy ko'yin,

Gulshani xuld anga, ul guli ruxsor manga.

Ushbu baytda zohid jannatini maqtaydi, men esa ul oy, ya'ni istiora san'ati orqali yor nazarda tutilgan, ko'chasini vashf qilaman, shunday ekan, jannat gulshani unga bo'lsin, ul yuzi gul yorim menga, deyilmoqda. Bu yerda "gul" so'zi tashbeh san'atining bir komponenti bo'lib, yuzi guldek chiroyli yorni ta'riflash uchun xizmat qilgan. "Guli ruxsor" birikmasini tashbeh san'ati juzvlari yuzasidan tahlil qiladigan bo'lsak, ruxsor- mushabbih (nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yo tushuncha); gul- mushabbihun bih (nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yo tushuncha). Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu o'xshatish g'azal badiiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan va uni o'qir ekanmiz ko'z o'ngimizga guldek nafis va go'zal bir yor keladi. Ushbu baytdagi yana bir muhim obrazlardan biri zohid timsolidir. Navoiy lirikasida ushbu obraz haqiqiy, ya'ni Allohga bo'lgan ishqdan bexabar, faqat zohiriga e'tibor berib, botinini o'ylamaydigan, ibodatlarini ham Alloh uchun emas, jannat umidida qiladigan inson sifatida ta'riflangan. Buyuk so'fiy ayol hisoblanmish Robiya Adviya inson ibodatlarini jannat umidida qilishi ham tamaning bir ko'rinishi ekanligi haqida shunday degan: "Ey Parvardigorim, ey Yori aziz, agar jannat tama'ida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib ibodat qiladigan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir-ming-ming roziman! Ammo agar sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!". Demak, ushbu baytda Navoiy guli ruxsor deya haqiqiy yor, ya'ni Allohni nazarda tutgan va zohid ibodatlarini jannat uchun qilsin va jannat ham unga

bo'lsin, menga yorim bo'lsa bas demoqda. Misralardagi gul va gulshan so'zi orqali ishtiyoq, anga va manga so'zlari orqali tazod san'atlari yuzaga chiqqan va butun bayt mazmuni tazod san'ati asosida qurilgan.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda oshiq timsoli, ko'pincha, bulbul obrazi orqali gavdalanirilgan: bulbul-oshiq, gul-ma'shuqa. Gul ko'zni qamashtiruvchi go'zalligi, rangi, yoqimli hidi bilan sarson oshiq timsoli bo'lgan bulbulni maftun etadi. Bulbul har kuni tongda uning shoxlariga qo'nib, ishq kuylarini kuylaydi. Turkiy adabiyotda gul va bulbul motivi ishtirokida olimlarning hisoblashiga ko'ra, jami 22 ta asar yozilgan. Eron adabiyotida Farididdin Attorning (vafoti 618/ 1221)ning "Bulbulnoma" asari mavjud. Gul va bulbul haqidagi hikoyalarning kelib chiqishini Yevropa adabiyotida arab adabiyotiga borib taqaladi deb hisoblashadi. Lekin johiliyat davri arab adabiyotiga nazar tashlansa, atirgul va bulbul tasvirining mavjud emasligi ko'rinadi [5,12]. Ayrim tadqiqotchilarga ko'ra, atirgul va bulbul motivi arablarga fors adabiyotidan o'tgan va ulardan Ispaniya va Sitsiliya orqali G'arbga kirib kelgan. Ammo devonda gul obrazining ham ma'shuqa emas, balki oshiq timsolida kelgan o'rinlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan:

Quyoshg'a goh qizormoq, goh sorg'ormoq erur andin,

Ki sun'ing bog'ida bor ul sifat yuz ming guli ra'no.

Ushbu baytda quyosh tashxis san'ati orqali shaxslantirilgan bo'lib, uning qizarishi, ya'ni uyalishi va sarg'ayishi, ya'ni g'am chekishining boisi yaratgan bog'ingda shunday sifatli yuz ming guli ra'nolar bor ekanligidadir, deyilmoqda. Ya'ni Alloh bu dunyoni o'zgacha bir mahorat, fasohat bilan yaratganki, unda bir-biridan go'zal, latofatli guli ra'nolar, ya'ni oshiqlar ko'p. Bularni ko'rgan quyosh o'zini go'zal, yagona deb o'ylagani uchun uyaladi, g'am chekadi. Zeroki, yaratilmishda Yaratgan Zot jilva qiladi deb bejizga aytilmagan. Bog'ni bir dunyo desak, undagi gullar bu Alloh jilva qiladigan va Uning ishqida yonayotgan oshiqlar desak mubolag'a bo'lmas.

Sarig' gul demakim, chun sarvinozim bog' aro bormish,

Yuzin ko'rgach qizil gul za'f etib, ul nav' sarg'armish.

Ushbu baytda oshiq o'zini ishq bog'ining tariqat ahlining bir sariq guliga o'xshatib, rangining sariqligiga sabab qilib, sarvinozining bog' aro kelganini va uni ko'rib qizil gul holsizlanib, sarg'ayib qolganini husni ta'lil san'ati orqali go'zal ifodalab bergan. Bu baytning zohiriy ma'nosi edi, endi botiniy ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida ranglar simbolikasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ranglar oshiqning ruhiy holati, Alloh tomon safaridagi daraja-bosqichlarini bildirib turadi. Tariqat bosqichida solik qalbida muhabbat qo'zg'aladi, u Alloh yodi bilan yashaydi va bu sariq rangga to'g'ri keladi. Navoiy ijodida ushbu rang siniqlik rangi, ishq ramzidir. Sariq rang quyoshning oltin ranglari singaridir. Quyoshga qaraganda ko'ngul, yuz ravshan tortganday haqiqiy ishq oshiqni asliyatga, azaliyatga yaqinlashtiradi. Asl va azaliy zot bu Allohdir. Qizil rang esa agar inson qalbida nafs bo'lsa, zohiran tiriklik, oqib turgan qon ramzidir. Inson nafsdan qutulgach va ilohiy sifatlarga yuzlangach ma'rifat-irfon rangi hisoblanadi. Chunki, ishq-tiriklikdir, haq ma'rifatini

anglashdir. Bu esa uning botiniy talqini hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda yorni, ma'shuqani sarvga o'xshatish an'anasi mavjud. Ushbu baytda ham yor sarvinoz timsolida gavdalantirilgan. Bilamizki, sarv tik o'suvchi daraxt hisoblanadi va shuning uchun ham nafsdan xoli deyilib, yor(Alloh) unga mengzaladi. Sarv daraxti mumtoz poetikada 3 xil talqin etiladi:

1. Sarvi sihiy-ikki shoxli tik o'suvchi daraxt;
2. Sarvi ozod- shoxsiz, tik o'suvchi daraxt.
3. Sarvi noz- shoxlari odam qo'llariday ikki tomonga egik daraxt;

Demak, dunyoga moyillik, tiriklik rangi hisoblanmish qizil rang oshiqning qalbini ishq(sariq rang) egallagach, zaif bo'lib qoldi va oshiq sarvinozning jamoli, ishqida rangi sarg'aydi. Ushbu baytda qizil gulning za'f etishi, sarg'ayishi tashxis san'ati orqali va sarvinoz istiora san'ati orqali nafislik bilan ifodalangan va o'quvchida o'zgacha estetik taassurot qoldiradi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotda, Alisher Navoiy ijodida har bir timsoldan go'zal badiiyat bilan mohirona foydalanilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Buning yorqin misoli sifatida yuqoridagi baytlardagi gul obrazini keltirishimiz mumkin. Ushbu obraz ham ma'shuqa, ham oshiq, ham tabiatdagi o'simlik ma'nolarini ifodalagan. Biz gulning an'anaviy ma'shuqa timsolini, tashbeh san'atining bir komponenti sifatida kelib, o'xshatilmish vazifasini bajarganini ko'p uchratganmiz. Ammo gul obrazi orqali oshiq timsoli, Allohga oshiqlar timsoli gavdalantirilgani chindan ham go'zal topilmadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati.1-jild Toshkent: Sharq, 2016.- B.433.
2. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati.1-jild Toshkent: Sharq, 2016.-B.129
3. Alisher Navoiy asarlari qomusiy lug'ati. 2-jild Toshkent: Sharq, 2016.-B.195
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2002.-B.41
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf- Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1996. 6-bet
6. Xolboyeva M. U. Alisher Navoiy ijodida gul va bulbul obrazi: filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati.- Toshkent, 2025.- B.12.
7. Xolboyeva M. Alisher Navoiy g'azallarida bulbul obrazi// Journal of universal science research, 2023 ISSN (E) : 2181-4570 (online)- B. 96.